

**QORAXONIYLAR DAVRIGA OID HARBIY ATAMALAR
(Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari asosida)**

Maxmudov Bexzod Xamidovich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiya universiteti

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix" kafedrası dotsenti,

tarix fanlari nomzodi

E-mail: bekzod.makhmudov123@gmail.com

tel-94-401-45-88

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari asosida Qoraxoniylar davlatining harbiy boshqaruv tizimi va strategiyasiga doir atamalar va ularning mazmun mohiyati tahlil etilgan.

***Kalit so'zlar:** Qoraxoniylar, Mahmud Qoshg'ariy, Devonu lug'otit turk, ashug, sunu, kesma, bogda, su, subashi, yatg'oq, tegin, chovush, haylboshi, yizak, qulovuz.*

**ВОЕННАЯ ТЕРМИНОЛОГИЯ ЭПОХИ КАРАХАНИДОВ
(На основе произведения Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-турк»)**

Махмудов Бехзод Хамидович

Кандидат исторических наук, доцент кафедры «Социально-гуманитарных дисциплин и истории» Ташкентского международного университета

финансового менеджмента и технологий

E-mail: bekzod.makhmudov123@gmail.com

тел-94-401-45-88

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе труда Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-турк» анализируется система военного управления и стратегия государства Караханидов, а также рассматриваются военные термины того времени и их смысловое содержание.

***Ключевые слова:** Караханиды, Махмуд Кашгари, «Диван лугат ат-турк», ашук, суну, кесма, богда, су, субаши, ятгок, тегин, чавуш, хайлбаши, йизак, куловуз.*

MILITARY TERMINOLOGY OF THE QARAKHANID PERIOD (Based on Mahmud al-Kashgari's "Dīwān Lughāt al-Turk")

Makhmudov Bekhzod Khamidovich

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor of the Department of
Social and Humanitarian Disciplines and History of the Tashkent International
University of Financial Management and Technology

E-mail: bekzod.makhmudov123@gmail.com

tel-94-401-45-88

ABSTRACT

This article analyzes the military administration system and strategy of the Qarakhanid state based on Mahmud al-Kashgari's "Dīwān Lughāt al-Turk." It examines the meanings and essence of the key military terms used in that period.

Keywords: *Qarakhanids, Mahmud al-Kashgari, Dīwān Lughāt al-Turk, ashuq, sunu, kesma, bogda, su, subashi, yatg'oq, tegin, chovush, haylboshi, yizak, qulavūz.*

KIRISH

Ma'lumki, diyorimiz tarixida IX–XII asrlar ulkan bir ma'naviy-ma'rifiy davr sifatida xarakterlanadi. Bu davrda faoliyat yuritgan har bir qomusiy allomaning ilmiy merosi, keyinchalik dunyo ilm-faniga asosiy poydevor bo'lib xizmat qilgan. Ana shunday allomalardan biri – Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al-Qoshg'ariydir.

XI asrda yashab ijod etgan buyuk tilshunos, tarixchi va etnograf Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yozilgan "Devonu lug'otit turk" asari turkiy xalqlar tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini va til boyligini o'rganishda eng muhim manbalardan biridir. Ushbu asar turkiy tillarning eng qadimiy lug'ati bo'libgina qolmay, balki o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayoti, jumladan harbiy san'ati haqida ham qimmatli ma'lumotlarni beradi.

"Devon"da uchraydigan harbiy atamalar turkiy xalqlarning davlatchiligi, qo'shin tuzilishi, qurol-aslahalari va jangovar san'atidan dalolat beradi. Bu atamalarni ilmiy tahlil qilish turkiy xalqlarning o'rta asrlardagi harbiy madaniyatini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu "Devon"ni Qoraxoniylar davlati tarixiga oid eng muhim birlamchi manba sifatida baholash mumkin. Biz quyida asosan Qoraxoniylar davriga oid harbiy atamalar va ularning ma'nosi xususida to'xtalamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qoraxoniylar davlati o'z faoliyatini, so'zsiz, o'rta asrlardagi barcha davlatlar kabi, harbiy kuchlarga doimiy tayanish asosida olib borgan. Shu bois, harbiy

kuchlarga ehtiyoj yuqori bo'lib, markaziy hokimiyat ularni sifat jihatdan rivojlantirish va takomillashtirishga katta e'tibor bilan qaragan. Bu davlatning harbiy qo'shinlari turli qurol-yarog'lar bilan, jumladan, qilich, qalqon, o'q-yoydan tashqari ashuq – temir dubulg'a, sunu – nayza, kesma – ensiz va uzun nayza, bog'da nomli xanjarlari bilan qurollangan edi (1).

Harbiy qo'shinlarning joylashuvi va harakati qat'iy belgilangan tartib asosida amalga oshirilgan. Masalan, oddiy askar "su" deb atalgan bo'lsa, butun harbiy qo'shin saf tortgan holatda "cherik" deb nomlangan. "Su" atamasi umumiy harbiy qo'shin ma'nosida, ya'ni ko'plikda ham qo'llanilgan. Bugungi kunda o'zbek xalqida "O'zbek bunday bo'lmaydi" degan ibora – yakka o'zbek shaxsi emas, balki butun xalq, millatni anglatishi hammamizga ayon. Demak "su", atamasi gap ma'nosiga ko'ra ba'zan yakka askar, harbiy shaxsni anglatga, ba'zan butun boshli harbiy qismlarni yig'indisini anglatgan.

Har bir harbiy qismlar o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajargan. Jumladan, haylboshi – otliq qo'shinlarga boshchilik qilgan; yizak – qo'shin avangardi bo'lib, oldinda yurgan, u eng qizg'in nuqtalarda jang qilgan jasur jangchilardan tashkil topgan. Otliq qo'shin turkiylarda doim juda muhim bo'lg'in hisoblangan. Turli tezkor harbiy chora-tadbirlar, taktik chekinish yoki dushman qo'shinini ta'qib qilish, harbiy voqeylikka zudlikda moslashishda aynan otliq qismlarning ahamiyati katta bo'lgan.

Chovush nomli mansab egasi jangda safni tartibga keltirgan. Tinchlik davrida esa askarlarni o'zboshimchalikka yo'l qo'ymasdan, tinch aholiga ozor yetkazishdan saqlagan. Chunki harbiylar nazoratsiz qolsa, tinch aholiga tegishli mol-mulkni bosib olish yoki talon-taroj qilish xavfi kuchayardi. Bunday holat esa hukmdorga nisbatan norozilik uyg'otishi mumkin edi. Shu sababli chovush lavozimidagi kishilarga katta mas'uliyat yuklatilgan. Harbiy yurishlarda qonunsizlik, tinch aholiga nisbatan zo'ravonlik masalasi juda jiddiy masala bo'lib kelgan. Chunki hukmdorlar o'zlari shaxsan bunday holatlarni yuz berishini istamasada, har doim ham buni oldini olishga to'liq muvaffaq bo'la olishmagan. Harbiy holat davom etayotgan va qo'shinlar bir manzildan, boshqa manzilga tez-tez yo'l olgan vaqtda buni to'liq nazorat qilish odatda murakkab vazifa hisoblanadi.

Qo'shinlarga yo'l ko'rsatib borish esa qulovuz zimmasida bo'lgan. Ular asosiy qo'shinni olib o'tishga qulay yo'llarni aniqlash, xavf-xatar haqida ogohlantirish bilan shug'ullangan. Harbiy qismlar uchun eng asosiy katta xavf-bu dushman tomonidan maxsus uyushtirilgan kutilmagan pistirma hujumlari hisoblanadi. Bunday pistirmalar esa ko'p hollarda katta qo'shin uchun o'tish noqulay bo'lgan tor daralarda, ko'priklar, suvdan kechib o'tish yo'llarida tuzilgan. Qulovuz lavozimidagi shaxs aynan shunday

xavfli jarayonlardan qo`shinni asrashi lozim bo`lgan. Odatda bu lavozimdagi kishilar xarita va safar yo`llarini yaxshi biladigan, tajribali harbiylar hisoblangan.

Umumiy qo`shindan tashqari maxsus saralangan harbiy bo`linma ham faoliyat ko`rsatgan. U yortug` nomi bilan yuritilib, hukmdor atrofida bo`lib, uni xavf-xatardan himoya qilgan. Bu tarkibdagi jangchilar turli sinovlar, harbiy musobaqalar va jang tajribasiga ko`ra tanlab olingan. Ular eng og`ir va murakkab vaziyatlarga tayyor, hukmdorning eng sadoqatli kishilari hisoblangan.

Hukmdorning shaxsiy qo`riqchisi esa yatg`oq deb atalgan (2). Bu lavozim egasi hukmdorga juda yaqindan tunu-kun hamroh bo`lib, uni kutilmagan xavfdan himoya qilishga mas`ul bo`lgan.

Qo`shinga umumiy rahbarlik qiluvchi lashkarboshi “subashi”, deb atalgan (3). Bu lavozimga harbiy jihatdan katta tajribaga ega, sadoqatli kishilar tayinlangan. Ko`pincha bu mas`uliyatli lavozim sulola xonadoniga mansub shaxslarga ishonib topshirilgan. Masalan, Qoraxoniylar davlatini Ahmad ibn Ali Arslonxon boshqargan (998–1017/1018) davrda ularning Movarounnahrda yurishlari jadallashadi. Bu yurishga hoqonning ukasi Nosir ibn Ali boshchilik qilgan. Uning lashkarboshiligi davrida Qoraxoniylar qo`shini 994 yilda Farg`ona va Xo`jandni, 995–996 yillarda E`loq va Shosh hududlarini, 997 yillarda esa Ustrushonani egallab, Movarounnahrning markaziy hududlariga kirib borgan (4). Demak, mantiqan olganda subashi mavqe jihatdan hoqondan keyingi shaxs bo`lib, butun harbiy jarayonlarga ma`sul bo`lgan.

Harbiy qo`shinlarni boshqarish taktik jihatdan ham takomillashgan. Harbiy yurishlarga oldindan puxta tayyorgarlik ko`rilgan. Har bir harbiy bo`linma o`ziga xos vazifalarni bajargan. Yurish vaqtida dushmanga qarshi pistirma qo`yish, dushman hujumidan saqlanish uchun baland va qulay joylarda harbiy istehkomlar – “qarg`u” qurish, tunda dushman ustiga to`satdan hujum qiladigan – “aqinchi” maxsus harbiy bo`linmalari mavjud bo`lgan (5).

Urushda jasorat ko`rsatgan askarlar mukofotlangan, keyingi janglarda ularni ruhlantirish uchun mansablari ko`tarilgan. O`zining harbiy qobiliyatini yuksak darajada ko`rsata olgan jangchilar, hatto hoqon nazariga tushib, uning iltifotiga sazovor bo`lishgan. Bunday obro`-e`tiborga ko`pgina hollarda ijtimoiy kelib chiqishi qul bo`lgan turk askarlari erishgan. Mahmud Qoshg`ariy o`z asarida Qutlug`tegin, Chag`ritegin, Kumushtegin, Kuchtegin, Alptegin kabi qul ismlarini qayd etganligi, buning dalolatidir (6). Shubhasiz, ular hoqonga sidqidildan xizmat qilib, shunga munosib ravishda uning e`tiborini qozonishgan. Demak, bu davrlarda kishini ijtimoiy kelib chiqishiga emas, balki uning qobiliyati va iste`dodiga qarab tanlashgan. Shu o`rinda yuqorida tilga olib o`tilgan tarixiy shaxslarni nomidagi “tegin” atamasiga

e'tibor bersak(7). "Tegin" atamasi Turk hoqonligi davridayoq mavjud bo'lib, odatda taxt vorisi bo'lgan shaxzodalar shu unvon bilan ulug'langan. Ayni vaqtda bu atama harbiy, ma'muriy va ijtimoiy jihatdan ko'p ma'nolarni o'zida aks ettirgan. Ushbu atama ulug'vor unvon sifatida, dastlab Turk hoqonligi davrida hukmron sulola vakillarigagina qo'llangan bo'lsa, davr o'tishi bilan ushbu atama sulolaga mansub bo'lmagan ammo ularga sidqidildan xizmat qilgan boshqa shaxslarga ham qo'llana boshlangan. Ularning orasida juda mashhur tarixiy shaxslar mavjud. Misol uchun somoniylar davriga tegishli Alptegin shaxsiga to'xtalsak, u dastlab somoniylar davlatiga ko'p xizmat qilgan, unga G'azna noibligi berilgan. Ammo birmuncha vaqt o'tgach nufuz va harbiy qudrati nihoyatda oshib ketgach, makaziy hokimiyat bilan ziddiyatga kirishgan. Uning davrida G'azna rasman somoniylar noibligi hisoblansada, amalda mustaqil boshqarila boshlangan. G'aznani keyingi hukmdori Sobuqtegin davriga kelib, ushbu noiblik alohida mustaqil davlat va sulola sifatida faoliyatini boshlagan va mintaqada eng qudratli davlat sifatida faoliyat ko'rsatgan. Demak "tegin" atamasi ulug'vor unvon sifatida keng ma'noda qo'llanib, u harbiy-ma'muriy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan turli davrlarda turli mazmun mohiyatni anglatib, davlatchilik tariximizda muhim atama hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Тошкент. 1960.-1-жилд. – Б. 67, 97, 340, 393, 407; 3-жилд. – Б. 22, 379, 393.
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. – Б. 144, 149, 349; 2-жилд. – Б. 236; 3-жилд. – Б. 26, 48, 49, 226.
3. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Тошкент. 1971. – Т Б. 374-396.
4. Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. Тошкент.1999. – Б. 51.
5. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. – Б. 106, 153, 219, 352, 401, 430.
6. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. – Б. 144, 391; 2-жилд. – Б. 123; 3-жилд. – Б. 251.
7. Махмудов В.Х. Тегин атамаси хусусида - // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент, 2010.- №3. – Б. 68-71.